

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.03.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

YUSUPOV SAIDVALI SHUKRULLAYEVICH

**TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION
STRATEGIYANI ISHLAB CHIQISH USLUBIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (DSc)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (DSc)
in economic sciences**

Yusupov Saidvali Shukrullayevich

To‘qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion strategiyani ishlab
chiqish uslubiyotini takomillashtirish 3

Юсупов Саидвали Шукруллаевич

Совершенствование методологии разработки инновационной
стратегии на предприятиях текстильной промышленности 37

Yusupov Saidvali Shukrullaevich

Improving the methodology for developing an innovation strategy at
textile industry enterprises 69

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 73

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.03.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

YUSUPOV SAIDVALI SHUKRULLAYEVICH

**TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION
STRATEGIYANI ISHLAB CHIQISH USLUBIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Iqt4901 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdtu.uz) va «ZiyoNet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Nazarova Fotima Hakimovna

iqtisod fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tillyaxodjayev Muzaffarxodja Abdupattaxovich

iqtisod fanlari doktori (DSc), dotsent

Kasimov Saidaxrol Magrupovich

iqtisod fanlari doktori, professor

Salimov Baxtiyor Tadjiyevich

iqtisod fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.03.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 207-07-32. e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 1000, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 207-07-32. e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.A. Ikramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

O.I. Begmullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
i.f.f.d. (PhD), dotsent

G.B. Yusupxodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon to'qimachilik sanoatida innovatsion strategiyalar sanoatni barqarorlik va raqobatbardoshlikka yo'naltirishda markaziy rol o'ynaydi. Global miqyosda sanoat 2025 yilda 2,12 trillion AQSh dollarini tashkil etib, 2034 yilga kelib 4,01 trillion dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa yillik o'sish sur'ati (CAGR) 7,35 %ni tashkil etadi¹. Innovatsiyalar asosan barqaror materiallar, bio-asoslangan tolalar, qayta ishlangan poliester, AI, IoT, 3D bosib chiqarish kabi 4.0 texnologiyalariga asoslangan strategiyalarga qaratilgan. Start Us Insights ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilda 3000 dan ortiq startap va scaleup loyihalari (AQSh va Yevropada 60 % ulush) yangi tolalar (ekologik, yengil, mexanik moslashuvchan) va aqlli matolar (suv o'tkazmaydigan paxta, antimikrob tolalar) ishlab chiqarmoqda². Global bozorlarda barqaror to'qimachilik bozori 2024 yilda 3,6 milliard dollardan 2034 yilga 9,4 milliard dollarga o'sishi prognoz qilinmoqda, bu esa iste'molchilarning 9,7 %i barqaror mahsulotlarga ortiqcha to'lashga tayyorligini ko'rsatadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion strategiyalar korxonalar raqobatbardoshligini 20-30 %ga oshiradi³, ammo ularni joriy etishda moliyaviy va texnologik to'siqlar mavjud.

Global to'qimachilik sanoatida innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishda ekologik ifloslanish sanoat global CO2 emissiyalarining 25 %ini hosil qiladi, chiqindilar boshqaruvi yillik 100 milliard dollar yo'qotishlar⁴, texnologik to'siqlar, jumladan Industry 4.0 ni joriy etishdagi moliyaviy va malakaviy cheklovlar, ta'minot zanjiri murakkabligi, xususan geosiyosiy xavflar va xomashyo taqchilligi, iste'molchi xatti-harakatlari, moda yo'nalishlaridagi o'zgarishlar kabi muammolar ustunlik qiladi⁵. Molekulyar qayta ishlash texnologiyalari miyeliy tolalar va baliq terisidan tayyorlangan charm chiqindilarni 50 %ga kamaytiradi, qayta ishlangan to'qimachilik bozori 2026 yilda sezilarli o'sish ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya AI va IoT orqali bashoratli monitoring, jumladan ML va bulutli hisoblash samaradorlikni 30 %ga oshiradi. SMARTEX kabi loyihalar nuqsonlarni aniqlashda 70 kunlik loyihada 3 barobar ROI ta'minlaydi. BMT SDGs va Yevropa Ittifoqining Circular Textile Strategy doirasida akademiya-sanoat hamkorligi innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Kichik va o'rta korxonalar uchun (SMEs) toza ishlab chiqarish strategiyalari operatsion samaradorlikni 20 %ga yaxshilaydi. Innovatsiya sug'urtasi va venchur kapitali (CCIU, 2023) xavflarni kamaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ochiq innovatsiyalar massaviy ishlab chiqarishni 40 %ga tezlashtiradi. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishiga qarshi chidamlilikni ta'minlashda Industry 4.0 texnologiyalari (AI, IoT, robototexnika) global to'qimachilik sanoatidagi ifloslanish va resurs tanqisligi muammolarini hal qilish yo'llarini va innovatsiya integratsiyasini ta'minlash borasida tadqiqotlar dolzarb bo'lib qolmoqda.

¹ Grand View Research. Textile Market Size, Share & Trends Analysis Report, 2025-2034. -URL: <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>.

² StartUs Insights. Textile Innovation: 20+ Startups Disrupting the Industry // StartUs Insights Report, 2024. -148 p.

³ McKinsey & Company. The State of Fashion 2025: Challenges and Opportunities. -McKinsey Global Fashion Index, 2024. -112 p.

⁴ World Bank. The Cost of Waste in the Textile Industry, 2023.

⁵ Ellen MacArthur Foundation. A New Textiles Economy: Redesigning Fashion's Future, 2023. -150 p.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirish borasida 2023-2025 yillarda 37 % investitsiya texnologik yangilanish va barqaror innovatsiyalarga yo‘naltirildi⁶, jumladan, 134 ta klaster va 4 ta qayta tiklanadigan energiya va suv tozalash inshootlari bilan maxsus sanoat zonolari tashkil etildi, Janubiy Koreya, Turkiya, Hindiston davlatlarining xorijiy investitsiyalari jalb etildi. Shu bilan birga, eksportning 90 foizi ip va matoga asoslanganligi, xorijiy valyutadagi qarzlarning 2,2 milliard dollarni tashkil etishi⁷, global paxta narxining pasayishi asosiy muammolardan hisoblanadi. Respublikamiz to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishda to‘qimachilikda innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish mexanizmini, innovatsion strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish samaradorligini baholashning mezon va ko‘rsatkichlarini asoslash, hamda innovatsion to‘qimachilik korxonalarini barqarorligini baholashning uslubiy masalalarini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada kengroq amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 sentabrdagi PQ-290-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida islohotlarni jadallashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 21 yanvardagi PF-53-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 14 dekabrda PF-5285-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021 yil 5-maydagi PQ-5989-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020 yil 5 maydagi PQ-5989-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020 yil 16 sentabrdagi PQ-4453-son “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 12 fevraldagi PQ-4186-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 16 sentabrdagi PQ-4453-son “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 28 apreldagi PQ-3697-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 8 maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2016 yil 21 dekabrda

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. To‘qimachilik sanoatini 2023-2025 yillarda rivojlantirish dasturi (ichki hisobot), 2024.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tashqi qarzdorlik bo‘yicha statistika, 2025 yil 1-chorak.

PQ-3682-son “2017-2019 yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁸. Sanoat korxonalarida innovatsion strategiyani ishlab chiqish uslubiyotini takomillashtirish masalalari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Massachusetts Institute of Technology, Stanford University, Harvard University (AQSh), University of Oxford (Buyuk Britaniya), Swiss Federal Institute of Technology (Shvetsiya), National University of Singapore (Singapur), Tsinghua University (Xitoy), Australian National University (Avstraliya), The University of Tokyo (Yaponiya), University of Toronto (Kanada), Seoul National University (Janubiy Koreya), London school of Economics (Buyuk Britaniya), Ludwig-Maximilians-Universitat Munchen (Germaniya), Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti (Rossiya), O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (O‘zbekiston) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Sanoat korxonalarida innovatsion strategiyani ishlab chiqish uslubiyotini takomillashtirishga doir olib borilgan tadqiqotlar asosida qator ilmiy-amaliy natijalar olingan, xususan: Yevropaning 20 dan ortiq mamlakatlaridagi korxonalar uchun to‘qimachilik mahsulotlarini sotishning samarali innovatsion siyosati ishlab chiqilgan (To‘qimachilik tarmog‘i Yevropa konfederatsiyasi – EURATEX, Belgiya); to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni texnik talablarini umumlashtiruvchi standartlar yaratilgan (To‘qimachilik va jun mahsulotlari xalqaro tashkiloti – IWTO, Fransiya); to‘qimachilik sanoatida pardoqlash bo‘yicha konsalting xizmatlarini tashkil etish va u bilan bog‘liq biznes tendensiyalari prognoz qilingan (AQSh to‘qimachilik ranglar assotsiatsiyasi – CAUS, AQSh); innovatsion kompaniyalar faoliyati samaradorligini baholash usuli ishlab chiqilgan (University of Leyeds, Buyuk Britaniya); yirik korporativ tuzilmalar moliyaviy menejment

⁸ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida tayyorlandi: Lotfi Askar Zadeh. The concept of a linguistic variable and its application to approximate reasoning, I-III, Information Sciences 8 (1975) 199-251, 301-357; 9 (1976) 43-80; Markowitz H.M. Portfolio Selection, Journal of Finance 7(1). March, 1952, pp. 77-91; Geske R. (1979) The valuation of compound options. Journal of financial economics, 7, pp. 63-81; Шарп У., Александер Г., Бейли Дж., Инвестиции. Пер. с англ. -М.: Инфра-М, 2010 г., 1028 стр; Saaty T. (1990) How to make a decision: the analytic hierarchy process. European journal of operational research, 48, pp. 9-26; Kahraman C., Cebeci U. and Ruan D. (2004) Multi-attribute comparison of catering service companies using fuzzy ahp: the case of Turkey. International journal of production economics, 87, pp. 171-184; Iwamura K., Liu B. (1998) Chance constrained integer programming models for capital budgeting in fuzzy environments. Journal of the operational research society, 49, pp. 854-860;

tizimida GAP tahlil konsepsiyasi ishlab chiqilgan (Ludwig Maximilians-Universität München, Germaniya); O‘zbekistonda paxta tolasi va to‘qimachilik mahsulotlarini jahon bozorlariga yetkazishda yuklar oqimini taqsimlash va istiqbolli eksport bozorini aniqlashning ekonometrik modellari va market-skriningi ishlab chiqilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston).

Jahonda to‘qimachilik sanoatida innovatsion strategiyani ishlab chiqish uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha qator, jumladan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda: to‘qimachilik mahsulotlariga nisbatan yangi xalqaro sifat nazorati talablarini ishlab chiqish; strategik boshqaruvda yuzaga keluvchi risklarni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish; to‘qimachilik sanoati korxonalarini strategik boshqarishda samarali raqamlashtirish texnologiyalaridan foydalanish; strategiya va innovatsion strategiya tushunchalarini o‘zaro uyg‘unlashtirish tizimini ishlab chiqish, to‘qimachilik sanoatida biznes-modellarni qo‘llash asosida strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish; qiymatni oshirishga yo‘naltirilgan strategik boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarida innovatsion-investitsion jarayonlarni boshqarish va samaradorligini oshirishga qaratilgan muammolar mahalliy va xorij olimlari ilmiy asarlarida keng yoritilgan. Bu borada L.Krkosa, X.P.Lankes, K.Meyer, T.Moran, X.Tomann va boshqa xorijlik olimlarning ilmiy ishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin⁹.

MDH olimlari A.N.Boldarev, A.A.Bovin, A.G.Ivanenko, Ye.A.Lapteva, A.N.Ogoleva, R.A.Fatxutdinov, N.M.Sitsarova, L.Ye.Cherednikova, V.Y.Yakimovich va boshqalarning asarlarida ham innovatsion jarayonlarni boshqarishga nisbatan nazariy va uslubiy masalalar tadqiq qilingan¹⁰.

Innovatsion-investitsion jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar O‘zbekistonlik olimlar X.Amonov, N.Yo‘ldoshev, N.Karimov, N.Maxmudov, M.Тилляходжаев, Sh.Majidov, N.Oblomurodov, U.Shodmonova, D.G‘ozibekov va boshqalar, mintaqalarda investitsion faollikni oshirish muammolari esa B.T.Bayxanov, K.Q.Ismailova, L.R.Shayusupova va boshqa olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida bayon etilgan¹¹. Shu bilan birga mazkur ilmiy

⁹ Moran T. “Foreign Direct Investment and Development: The new policy agenda for developing countries and economies in transition”. Washington, DC. 1998; Lankes H.P. and Venables A.J., “Foreign Direct Investment in Economic Transition: the Changing Pattern of Investments”. Economics Transition, 1996, Vol. 4, No. 2, pp. 331-347.; Meyer K., “Foreign Direct Investment in Economies in Transition”. Cheltenham, England. 1998; Krkosa L. FDI financing of capital formation in Central and Eastern Europe, London. EBRD working paper number 67, 2001.; Томанн Х. Прямые иностранные инвестиции в переходные период экономики. -Берлин, Германия, 2004.

¹⁰ Болдарев А.Н. Управление инвестициями в создание и развитие инфраструктуры с использованием государственного партнерства (на примере морских портов) -М., 2000.; Иваненко А.Г. Инновационный менеджмент: учебное пособие. -М.: КНОРУС, 2009.; Инновационный менеджмент: учеб. пособ. / Под ред. Л.Н. Оголевой. -М.: ИНФРА-М, 2008.; Лаптева Е.А. Развитие методов оценки инновационного потенциала промышленных предприятий: автореферат дис...к.э.н. -Саратов, Россия.: Саратовский государственный технический университет имени Ю.А.Гагарина, 2014, -28 с.; Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент: Учебник для вузов. 6-е изд. -СПб.: Питер, 2008, -448 с.; Цицарова М.Н. Инновационный менеджмент: учебное пособие. -Ульяновск: УлГТУ, 2009. -195 с. Бовин А.А., Чередникова Л.Е., Якимович В.Я. Управление инновациями в организации: учеб. пособие. -М.: Омега-Л, 2006. -415 с.

¹¹ G‘ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. Bank-moliya akademiyasi. -T., 2000.; Karimov N. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga qo‘yiladigan xorijiy investitsiyalar va ularning moliyaviy ta‘minlanishi. Bank-moliya akademiyasi. -T., 1998.; Amonov X. Xorijiy investitsiyalarni xususiyashtirish sharoitida jalb qilish.

tadqiqot ishlarida yengil sanoatning yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan tikuvchilik-trikotaj tarmog'ida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish masalalari yetarlicha to'liq o'rganilmagan.

Tadqiq etilayotgan masalaning yetarlicha to'liq o'rganilmaganligi, O'zbekiston tikuvchilik-trikotaj tarmog'ida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish zarurligi dissertatsiya mavzusining maqsad va vazifalari doirasini belgilab berdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston to'qimachilik korxonalarida innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuv va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

to'qimachilik korxonalarini tashkil etishda innovatsion strategiyaning asosiy jihatlarini tadqiq etish;

innovatsion strategiyani ishlab chiqishga ta'sir etuvchi omillarni asoslash;

innovatsion rivojlanishda strategik boshqarishning ilmiy asoslarini tadqiq etish;

to'qimachilikda innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish mexanizmini asoslash;

innovatsion strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish samaradorligini baholashning mezon va ko'rsatkichlarini asoslash;

innovatsion to'qimachilik korxonalarini barqarorligini baholashning uslubiy masalalarini tadqiq etish;

Respublikamiz to'qimachilik korxonalarini iqtisodiy rivojlanish holatini tahlil qilish;

SWOT-tahlili asosida to'qimachilik korxonalarini faoliyatini baholash;

to'qimachilik korxonalarini innovatsion strategiyalarini tahlil qilish;

innovatsion strategiyalarni amalga oshirishning xorij tajribasini tadqiq etish;

to'qimachilik korxonalariga innovatsiyalarni joriy etish rejasini chiziqli dasturlash asosida optimallashtirish;

O'zbekiston to'qimachilik korxonalarining innovatsion strategiyasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bank-moliya akademiyasi. -T., 2002.; Shayusupova L.R. O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya sohasining rivojiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. -T.: Iqtisodiyot instituti, 2001.; Ismailova K.Q. O'zbekistonda investitsiya bozori va uni takomillashtirish yo'llari. -T.: Iqtisodiyot instituti, 2003.; Bayxanov B.T. To'qimachilik sanoati korxonalarida investitsiyadan foydalanish samaradorligini baholash jarayonlarini modellashtirish. Diss. i.f.n., 2010.; Тилляходжаев М.А. Экономическая стратегия развития хлопкоочистительной промышленности в условиях рыночной экономики [Текст]: автореф. дис... док. экон. наук: 08.00.03 / М.А.Тилляходжаев. -Ташкент, 2020. -32 с.; Маджидов Ш.А. Повышение эффективности инвестиционной деятельности в шелковой промышленности. Авт. дисс. к.э.н. Институт Экономики АН Узб., 2010.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi to‘qimachilik korxonalarini, xususan “Shayxantoxur Tekstil” MChJ QK, “Zeta Teks” MChJ QK va “Yevroteks Global” MChJ QK faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida to‘qimachilik korxonalarida innovatsion strategiyani amalga oshirishda yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, taqqoslash, tasniflash, iqtisodiy matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga asosan “innovatsion strategiya” tushunchasining iqtisodiy mazmuni uzoq muddatli raqobat ustunliklarini shakllantirish maqsadida innovatsion xatarlar bilan kutilgan foyda o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashni belgilab beruvchi strategik rejalashtirish va boshqaruv qarorlari tizimi sifatida takomillashtirilgan;

to‘qimachilik korxonalarini tomonidan innovatsion strategiyani shakllantirish doirasida yangi turdagi mato va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, brendlash, dizayn va “fast fashion” modellarini qo‘llash imkonini kuchaytirishda mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan aralash mato va gazlama mahsulotlari, charm va ipak sanoati uchun zarur xomashyolar uch yil muddatga bojxona bojidan ozod etilishi taklifi ishlab chiqilgan;

to‘qimachilik korxonalarida innovatsion strategiyani ishlab chiqish uslubiyotining amaliy-institusional mexanizmi klasterlar, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalariga ijtimoiy soliq stavkasini 1 foizga qadar pasaytirishni ko‘zda tutuvchi innovatsion strategiyani qo‘llab-quvvatlash jihatidan takomillashtirilgan;

mamlakatdagi tegishli mutassadi idora va vazirliklarning xorijiy davlatlardagi elchixonalarini bilan birgalikda “aniq yo‘naltirilgan innovatsion hamkorlik faoliyati” doirasida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sohasida yirik brendlar bilan ishlash, xalqaro sertifikatga ega to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini sonini oshirish, tashqi bozorlarga tayyor kiyim-kechak mahsulotlari eksporti hajmini ko‘paytirish taklifi asoslangan;

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar faoliyatining uzoq muddatli texnik-iqtisodiy natijalariga ta‘sir etuvchi omillarning ekonometrik modellari asosida tarmoqning 2030 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

to‘qimachilik korxonalarida innovatsion strategiyani shakllantirishga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar asoslangan;

to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishda ishlab chiqarishni jadallashtirish, fan-texnika sur‘atini oshirishning asosiy vazifalari belgilab berilgan; korxonaning biznesdagi raqobat mavqeini strategik ko‘ra bilishlikni shakllantirish modeli ishlab chiqilgan;

korxonada innovatsion strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish samaradorligini baholashning mezon va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda, ishlab

chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi asosiy unsurlardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun ko'p omilli tahlil usulidan foydalanish tavsiya etilgan;

innovatsion strategiyani ishlab chiqish bosqichlari uchun raqobatbardoshlikni boshqarishga nisbatan yondashuvlar tavsiya etilgan;

to'qimachilik sanoati tarmoqlarida innovatsion faoliyatning asosiy yo'nalishlari tavsiflangan;

to'qimachilik korxonalarida innovatsion strategiyalarining tahlili asosida innovatsiyalarni joriy etish samaradorligi baholangan;

Respublikamiz to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning innovatsion strategiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi iqtisodchi olimlarning innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy fikrlarini qiyosiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning asoslanganligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, to'qimachilik korxonalarida innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishga oid yondashuvlarning ishlab chiqilishi, innovatsion jarayonlarning tarmoqqa xos asosiy xususiyatlari asoslab berilishi, korxonada innovatsion strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish samaradorligini baholashning mezon va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, innovatsion to'qimachilik korxonalarining amaliy-institutsional mexanizmi unsurlari tizimini ishlab chiqish bo'yicha yondashuvlarning ishlab chiqilishi iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida to'qimachilik korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati respublikamizdagi to'qimachilik korxonalarida innovatsion strategiyani shakllantirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, to'qimachilik tarmog'ining istiqboldagi ko'rsatkichlarini asoslash hamda "Menejment", "Innovatsion menejment", "Innovatsiyalar va investitsiyalarni boshqarish", "Innovatsion menejment va tadbirkorlik" fanlari bo'yicha keystadilar, ma'ruzalar matni, o'quv qo'llanmalarni tuzishda ulardan manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion strategiyani ishlab chiqish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga asosan "innovatsion strategiya" tushunchasining iqtisodiy mazmuni uzoq muddatli raqobat ustunliklarini shakllantirish maqsadida innovatsion xatarlar bilan kutilgan foyda o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashni belgilab beruvchi strategik rejalashtirish va boshqaruv qarorlari tizimi sifatida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "Iqtisodiyot nazariyasi (jadvallarda)" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 17 martdagi 106-341 - son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda to'qimachilik

korxonalarida innovatsion strategiyani ishlab chiqishga oid nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

to'qimachilik korxonalarini tomonidan innovatsion strategiyani shakllantirish doirasida yangi turdagi mato va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, brendlash, dizayn va "fast fashion" modellarini qo'llash imkonini kuchaytirishda mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan aralash mato va gazlama mahsulotlari, charm va ipak sanoati uchun zarur xomashyolar uch yil muddatga bojxona bojidan ozod etilishi taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 sentabrdagi PQ-290-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida islohotlarni jadallashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida inobatga olingan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2024 yil 11 martdagi 12-12-19-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yangi turdagi mato va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, brendlash, dizayn va "fast fashion" modellarini qo'llash imkoni yaratilgan;

to'qimachilik korxonalarida innovatsion strategiyani ishlab chiqish uslubiyotining amaliy-institusional mexanizmi klasterlar, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalariga ijtimoiy soliq stavkasini 1 foizga qadar pasaytirishni ko'zda tutuvchi innovatsion strategiyani qo'llab-quvvatlash jihatidan takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 sentabrdagi PQ-290-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida islohotlarni jadallashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida inobatga olingan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2024 yil 11 martdagi 12-12-19-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida klasterlar, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalariga ijtimoiy soliq stavkasini pasaytirish orqali innovatsion strategiyani qo'llab-quvvatlash imkoni yaratilgan;

mamlakatdagi tegishli mutassadi idora va vazirliklarning xorijiy davlatlardagi elchixonalar bilan birgalikda "aniq yo'naltirilgan innovatsion hamkorlik faoliyati" doirasida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasida yirik brendlar bilan ishlash, xalqaro sertifikatga ega to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini sonini oshirish, tashqi bozorlarga tayyor kiyim-kechak mahsulotlari eksporti hajmini ko'paytirish taklifi "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tarkibidagi korxonalarining boshqaruv faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2024 yil 11 martdagi 12-12-19-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasida yirik brendlar bilan ishlash, xalqaro sertifikatga ega to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini sonini oshirish, tashqi bozorlarga tayyor kiyim-kechak mahsulotlari eksporti hajmini ko'paytirish imkoni yaratilgan;

"O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tarkibidagi korxonalar faoliyatining uzoq muddatli texnik-iqtisodiy natijalariga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modellari asosida tarmoqning 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishning istiqbol rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2024 yil 11 martdagi 12-12-19-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida

O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv trikotaj sanoatini rivojlantirishning istiqboldagi parametrlarini o‘zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, 17 ta maqola (12 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda), 8 ta konferensiya tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 230 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Korxonalar innovatsion strategiyasining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida to‘qimachilikda innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish mexanizmi asoslangan. To‘qimachilik korxonalar innovatsion strategiyalarini shakllantirishga ta‘sir etuvchi omillar hamda innovatsion strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish samaradorligini baholashning mezon va ko‘rsatkichlari tadqiq etilgan. Innovatsion to‘qimachilik korxonalar barqarorligini baholashning uslubiy masalalari bo‘yicha mualliflik yondashuvlari keltirilgan.


Bugungi kunda dunyo bozorida tabiiy tolalardan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston dunyo bozorida faqatgina paxta xomashyosi emas, balki tayyor to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini yetkazib beruvchi eksporter sifatida tanilishi uchun ham keng imkoniyatlarimiz borligini ta‘kidlashimiz zarur.

To‘qimachilik sanoati – sanoatning yirik tarmoqlaridan hisoblanadi. U aholining iste‘mol buyumlariga bo‘lgan shaxsiy ehtiyojlarini qondiradi, shu bilan birga shu buyumlarni ishlab chiqarish uchun hamda sanoatning boshqa tarmoqlarida foydalaniladigan materiallarni tayyorlab beradi. To‘qimachilik sanoati tarkibiga yigirish, ipakchilik, to‘qish, trikotaj, bo‘yash-pardozlash, gilamchilik, tikuvchilik kabi tarmoqlar kiradi.

Dissertatsiyada to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishdagi vazifalar asoslangan. Ishlab chiqarishni tashkil qilish – bu ishlab chiqarishning barcha moddiy va mehnat elementlarini vaqt va makon jihatdan muvofiqlashtirishdan iboratdir. Innovatsion to‘qimachilik korxonalar – o‘z resurslarini real ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalariga kiritish orqali ishlab chiqarish tizimini sifat jihatidan samaradorligini yoki mahsulot sifatini oshirishni ta‘minlaydigan korxonalar

hisoblanib, bunday korxonalarni tashkil etish bugungi kunda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishdagi muhim strategik yo‘nalishlardan hisoblanadi. Innovatsion korxonalarining xususiyatlari tashkilot ichida, xuddi ochiq tizim ichidagi kabi tizimosti tizimlarning, tuzilmalarning hamda ularni tashkil etgan elementlarning o‘zaro bog‘liqligini tavsiflaydi.

Korxonaga strategiyasi ilmiy-texnik taraqqiyotni boshqarish strategiyasini shakllantiradi va yo‘lga soladi, ya’ni innovatsion faoliyatning yo‘nalishini belgilab beradi.



1-rasm. Innovatsion strategiyani shakllantirishga ta‘sir etuvchi omillar¹²

O‘z navbatida innovatsion strategiya korxonaga strategiyasini chuqurlashtiradi, aniqlab beradi va amalga oshishiga ko‘maklashadi, shuningdek maqsadlarga erishish va raqobatdoshlik nuqtai-nazaridan korxonaga tashqarisidagi ustuvorliklarni oshirishga yordam beradi (1-rasm).


Mamlakatda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, to‘qimachilik tarmog‘ini rivojlantirishning innovatsion strategiyasini shakllantirishga bir qator omillar ta‘sir etadi. Innovatsion strategiyani ishlab chiqishga ta‘sir etuvchi omillarni tavsiflash, mazkur omillarni qay darajada ta‘sirini va ularning yechilmayotganligini aniqlash hamda qanday samarasini oshirish mumkin, degan savolga javob topish imkonini beradi.

To‘qimachilik sanoatining tarmoqqa xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, to‘qimachilik korxonasi faoliyatini tashkil etib, uning samaradorligini ta‘minlashda, korxonani yagona bir tizim sifatida qarab, uning tarkibiga kiruvchi barcha korxonaga va tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro muvofiqlikni ta‘minlashga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni tadqiq etish hamda korxonalarining innovatsion strategiyasi

¹² Muallif ishlanmasi.

bo'yicha yondashuvlarni ishlab chiqib, samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Biz o'z tadqiqotlarimizni amalga oshirishda, zamonaviy innovatsion korxonalarining ichki muhit omillarini ishlab chiqarishning tashkiliy turlari, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tavsifi, korxonaning tashkiliy tuzilishi hamda uning rivojlanish strategiyasiga bo'lib, tadqiq etishni joiz, deb bildik. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda, tarmoq korxonalarini rivojlantirish innovatsion strategiyasining o'ziga xos jihatlari tavsiflandi (2-rasm).



2-rasm. Tarmoq korxonalarini rivojlantirish innovatsion strategiyasining o'ziga xos jihatlari¹³

Fikrimizcha, innovatsion strategiya – korxonaning maqsadlariga erishish vositalaridan biri ya'ni, o'zining yangiligi bilan boshqa vositalardan, birinchi navbatda, ushbu korxonaning sanoat, bozor va iste'molchilarning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan jarayon bo'lib, korxonaning umumiy strategiyasiga bo'ysunuvchi, innovatsiyalarning maqsadlarini, ularga erishish vositalarini va mablag'larni jalb qilish manbalarini tanlashni belgilaydigan yo'ldir.

Korxonaning innovatsion strategiyasi korxonaning faoliyatini strategik rejalashtirishning asosiy yo'nalishlaridan bo'lib, uzoq muddatli raqobat ustunliklarini shakllantirish maqsadida innovatsion xatarlar bilan kutilgan foyda o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga qaratilgan boshqaruvga asoslangan bo'lishi kerak.

Innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishga nisbatan tizimli va vaziyatli yondashuv, birinchidan strategiyani rejalashtirish jarayoni tuzilmasini, bozorni strategik segmentlashning mohiyati va uslubiyotini tushunish, ikkinchidan strategik muqobillarni tahlil qilish va strategiyani tanlashda foydalaniladigan uslubiy vositalarni farqlab olish, uchinchidan esa makromuhitning strategik o'zgarishlari


¹³ Muallif ishlanmasi.

sharoitida tarmoq korxonasi oldida turgan maqsadga erishishga imkon beradigan strategiyani loyihalashtirish va amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirishning uslubiy yondashuvlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida to‘qimachilikda innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish mexanizmi asoslangan. To‘qimachilik korxonalarida innovatsion strategiyalarini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar hamda innovatsion strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish samaradorligini baholashning mezon va ko‘rsatkichlari tadqiq etilgan. Innovatsion to‘qimachilik korxonalarida barqarorligini baholashning uslubiy masalalari bo‘yicha mualliflik yondashuvlari keltirilgan.

Korxonaning innovatsion rivojlanishini boshqarish – bu obyektiv, maqsadli, dinamik va muvozanatli jarayon bo‘lib, u tashkilot, iqtisodiy va ishlab chiqarish rivojlanishining innovatsion yo‘nalishlarining sifat jihatidan yangi sinergetik holatga erishishga yo‘naltirilgan. Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun mos kompleks mexanizm orqali amalga oshirilishi kerak.

Strategiyani shakllantirish korxonaning mavjud moddiy va nomoddiy resurslariga bog‘liq bo‘lgan innovatsion rivojlanish yo‘nalishini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi, korxonaning raqobatbardosh profilini baholashni, tashqi va ichki muhitning ta’sir omillarini hisobga oladi.



3-rasm. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning konseptual modeli¹⁴

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasini shakllantirish uchun tashkilotning missiyasi va qarashlarini aks ettiruvchi, iqtisodiy, boshqaruv va ijtimoiy falsafani o'z ichiga olgan korxonaning innovatsion faoliyati maqsadlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, tashkilotning samaradorligiga ta'sir qiladi. Innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadlari aniqlangandan keyingina, ularni amalga oshirish yo'llarini izlashga kirishish tavsiya etiladi. Korxonaning innovatsion faolligi darajasini yaxlit baholash natijalariga asoslangan holda, innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning konseptual modeli ishlab chiqildi (3-rasm).

Respublikamiz to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqishda asosiy e'tiborni tarmoqni global raqobatbardoshlikka olib chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishga qaratishimiz kerak.


“Boshqaruv mexanizmi” deganda biror-bir maqsadga erishish uchun insonlarga ta'sir ko'rsatadigan usullar majmui, ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish uchun mo'ljallangan qurilmalar tushuniladi. Demak, boshqaruv mexanizmi maqsadlarga erishishda tashkilotning samarali o'zaro ta'siri va ishlashini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan.

Mazkur mexanizmni shakllantirishda amaliy-tashkiliy unsurlarning o'rnini katta bo'lib, tashkiliy shakllar hamda tashkiliy choralar uning tarkibiga kiradi. Tashkiliy shakllar deganda biz, paxta-to'qimachilik klasterlari, to'qimachilik iqtisodiy zonalari, texnopark va texnopolislar, konsessiyalar, litsenziya shartnomasi, servis kontrakti, lizing korxonalarini kabi innovatsion to'qimachilik korxonalarini faoliyatini tashkil etishning unsurlarini nazarda tutganmiz.

Taklif etilayotgan innovatsion to'qimachilik korxonalarining asosiy amaliy-tashkiliy mexanizmini tashkil etuvchi elementlar o'z navbatida, bank tizimini, institutsional institutlar va boshqa tashkilotlarni, shuningdek tashkiliy shakllar hamda tashkiliy choralar kabi unsurlarni o'z ichiga oladi (4-rasm).

Tavsiya etilayotgan amaliy-institutsional mexanizmni amalga oshirishda paxta-to'qimachilik klasterlari va tikuv-trikotaj korxonalarini markaziy o'rin egallaydi, boisi ular to'qimachilik sanoatida xomashyodan to tayyor mahsulotgacha bo'lgan qiymatlar zanjirini integratsiyalash imkonini beradi. Ijtimoiy soliq stavkasini 1 % gacha pasaytirish korxonaning innovatsion strategiyasini qo'llab-quvvatlashda asosiy o'rinlardan birini egallaydi, korxonalarining xarajatlarini kamaytirib, investitsiyalarni jalb qilish va ish o'rinlarini ko'paytirishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda respublikamiz to'qimachilik sanoatida 134 ta paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyat yuritayotgan bo'lib, “paxtadan kiyimgacha” zanjirini birlashtiruvchi institutsional tuzilma hisoblanadi. Ular orqali paxta xomashyosi, gazlama, tikuv va eksport bosqichlarini o'zlarida mujassamlashtiryapti. Klasterlar innovatsiyalarni joriy etishda markaziy rol o'ynaydi, chunki ular korxonalar o'rtasida resurs almashinuvini ta'minlaydi.



4-rasm. Innovation to'qimachilik korxonalarining amaliy-tashkiliy mexanizmi unsurlari tizimi¹⁵

¹⁵ Muallif ishlamasi.

Soliq yengilligi to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni va mahsulot eksportini rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda tarmoq korxonalarida soliq yuklamasi korxonalar tannarxini o'rtacha 15-20 %ga oshiradi, bu esa Turkiya va Bangladesh kabi davlatlar oldida mahsulot raqobatbardoshligini zaiflashtiradi. Ijtimoiy soliq stavkasini 12 %dan 1 %gacha pasaytirish korxonalarga o'rtacha yillik 500-700 mlrd. so'm tejash, bu mablag'larni esa innovatsion loyihalarga yo'naltirish imkonini beradi.

Tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat sarfi yuqori ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan 500 mingdan ortiq ishchining soliq yengilligi ish haqini oshirishga, shuningdek qo'shimcha yana 100-150 ming yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi. Klasterlarda esa bu mexanizm vertikal integratsiyani kuchaytiradi.

Respublikamiz to'qimachilik sanoatini jadal sur'atlarda rivojlantirish va uni global bozorda raqobatbardoshligini ta'minlashda, innovatsion strategiyani amalga oshirishning eng muhim to'siqlardan biri – yuqori sifatli, aralash tarkibli jumladan, viskoza, modal, lyocell, poliester-viscoza, elastanli matolarni, zamonaviy dizaynli gazlamalar va “fast fashion” talablariga mos keladigan materiallarni mamlakat ichida yetarli miqdorda va raqobatbardosh narxda ishlab chiqara olmayotganligimizdir. Shu sababli tarmoq korxonalarini importga qaram bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston to'qimachilik sanoati raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirish uchun Zara, Shein, Mango kabi “fast fashion” brendlari asosida tayyor tikuv-trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish uchun aralash matolar jumladan, poly-viscose, Tencel, elastan qo'shilgan trikotaj va to'qima gazlamalar va zamonaviy dizaynga ega bo'lgan boshqa mahsulotlar talab etilmoqda.

O'zbekistonning paxta matolari sifati yuqori bo'lsa-da, aralash gazlamalar ishlab chiqarish hajmi va nomenklaturasi yetarli darajada emas. Natijada, tayyor kiyim ishlab chiqaruvchilar xomashyo, gazlamalarni import qilishga majbur bo'lishyapti. Mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan aralash mato va gazlama mahsulotlari, charm va ipak sanoati uchun zarur xomashyolarga nisbatan bojxona bojlarining yuqoriligi tayyor mahsulot tannarxini oshiradi, eksport narxini ko'taradi, shuning hisobiga Turkiya, Bangladesh, Vetnam kabi davlatlarda ishlab chiqarilayotgan tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlariga nisbatan raqobatbardoshlikni yo'qotamiz. Agar tikuv-trikotaj mahsulotlariga nisbatan bojxona bojlarining stavkasi o'rtacha 15-30 %ni tashkil etishini inobatga oladigan bo'lsak, 3 yillik bojxona imtiyozini tannarxni o'rtacha 10-18 %ga tushiradi, natijada mahsulotning raqobatbardoshligi, eksport hajmi ortadi.

Aralash mato va zamonaviy gazlama ishlab chiqarishni, yangi ip-kalava, bo'yash, apparat to'qish liniyalarini tashkil etish uchun katta investitsiya talab qilinadi. “O'zto'qimachilik sanoati” uyushmasi 2024-2027 yillarda 1,2 mlrd. dollarlik loyihalarni amalga oshirmoqda. Lekin ular to'liq quvvatga chiqquncha importga muqobil yo'q.

Uch yillik imtiyoz – bu “vaqtinchalik ko'priq” bo'lib, mahalliy ishlab chiqarish to'liq quvvatga chiqqanda, bojxona boji qayta tiklanishi mumkin. Yangi brend va

dizayn yoʻnalishini rivojlantirish, “Made in Uzbekistan” brendini fast fashion bozorida joylashtirish uchun hozirgi kunda mavjud boʻlmagan materiallar, jumladan eko-charm, sunʻiy ipak, lyocell, recycled polester kerak. Shu boisdan ham, jahon bozorlarida tarmoq mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish uchun mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan aralash mato va gazlama mahsulotlari, charm va ipak sanoati uchun zarur xomashyolar uch yil muddatga bojxona bojidan ozod etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bojxona imtiyozsiz yangi dizaynerlik brendlarining xarajatlari oshib, ularning bozorda omon qolishi qiyinlashadi. Import gazlama bojxona bojidan ozod boʻlsa tayyor kiyim ishlab chiqarish hajmi oshadi, qoʻshimcha ish oʻrnilarini yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda, har bir tonna import gazlamadan oʻrtacha 4-5 baravar koʻproq qoʻshimcha qiymat yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Bojxona boji bekor qilinsa, davlat uch yilda yoʻqotadigan soliq oʻrniga eksportdan olinadigan QQS va foyda soligʻi bilan qoplanadi. Shu bilan birga, “Made in Uzbekistan” fast fashion brendlari global bozorga chiqadi. Uch yildan soʻng, mahalliy ishlab chiqarish toʻliq importni almashtiradi, natijada bojxona boji qayta tiklanadi.

Dissertatsiya ishida omilli tahlil usuliga asoslangan holda, toʻqimachilik korxonalarida innovatsion strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish samaradorligini baholashning mezon va koʻrsatkichlari baholandi. Mahsulot ishlab chiqarish qiymatida moddiy xarajatlarni pasaytirishga taʼsir etuvchi omillar tadqiq etildi hamda mazkur omillarning tannarxga taʼsirini miqdoriy jihatdan aniqlash koʻrsatkichi tavsiya etildi.

Dissertatsiyaning **“Oʻzbekiston iqtisodiy salohiyatini oshirishda innovatsion toʻqimachilik korxonalarining oʻrni”** deb nomlangan uchinchi bobida respublikamiz toʻqimachilik korxonalarini iqtisodiy rivojlanish holati tahlil qilingan. SWOT-tahlili asosida toʻqimachilik korxonalarini faoliyati baholangan hamda toʻqimachilik korxonalarini innovatsion strategiyalarining tahlili amalga oshirilgan.

Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi “Oʻztoʻqimachilik sanoat” uyushmasi tarkibida 1654 ta korxonalar, jumladan 457 ta toʻqimachilik korxonalarini, 1197 ta tikuvchilik-trikotaj korxonalarini, shuningdek 134 ta paxta-toʻqimachilik klasterlarini faoliyat yuritmoqda. Tarmoq korxonalarida ishlab chiqarish quvvati yuqori surʼatlar bilan ortib bormoqda.

Tarmoqning asosiy yutuqi – bu bizning yetishtirilgan paxta xomashyosini 100 % qayta ishlashga erishilgani hamda toʻqimachilik mahsulotlarini eksportini 3,0 mlrd. dollardan ortganidir.


Tarmoq korxonalarining bugungi kundagi rivojlanish holatiga asosiy texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlari dinamikasi orqali ham baho berishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi korxonalarining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi¹⁶

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birl.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024 y. 2020 y. ga nisb. %
1.	Tovar mahsuloti	mlrd. so‘m	13274,1	17248,8	21991,2	33027,6	38813,4	2,9 marta
2.	Paxta tolasi	tonna	533243	801289	852295	1006500	1080000	202,5
3.	Eksport hajmi	mln. doll.	1302,3	1541,5	1868,5	2643,2	2927,8	2,4 marta
4.	Innovatsion-investitsion loyihalar soni	dona	60,0	91,0	71,0	64,0	88,0	146,7
5.	Yaratilgan ish o‘rinlari soni	dona	10654	17293	16855	21685	23455	220,1
6.	Loyihalarning umumiy qiymati	mln. doll	550,9	832,3	474,2	811,2	771,2	140,0

1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2020-2024 yillarda tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2,9 marta ortgan, shuningdek mahsulot eksport hajmi 2,4 martaga ortgan. 2024 yil 2023 yilga nisbatan amalga oshirilgan innovatsion-investitsion loyihalar soni 146,7 %ni, loyihalarning umumiy qiymati esa 140 %ni tashkil etgan.



5-rasm. To‘qimachilik sanoati tarmoqlarida innovatsion faoliyatning asosiy yo‘nalishlari¹⁷

¹⁶ “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁷ “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Respublikamiz to‘qimachilik sanoatining rivojlanishida amalga oshirilayotgan innovatsion strategiyaning o‘rni katta.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoati tarmoqlarida innovatsion faoliyatning asosiy yo‘nalishlarida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘zlashtirish alohida o‘rin tutadi (5-rasm).

Shu bilan birga, tarmoq korxonalarida innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek yangi texnologiyalar asosida ishlaydigan zamonaviy mashina va dastgohlarga xizmat ko‘rsata oladigan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini amalga oshirish ham korxonalar innovatsion strategiyasi samaradorligini oshiradi, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, to‘qimachilik korxonalarining innovatsion rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berishda sun‘iy tolalar ishlab chiqarishga alohida e‘tibor qaratishimiz lozim. Boisi, trikotaj matosini ishlab chiqarishda 15-20 % sun‘iy tolalardan foydalanilsa, matoning fizik-mexanik xususiyatlari 100 % paxta tolasidan ishlab chiqarilgan matonikidan farq qilmaydi. Shu bilan birga, bunday matodan ishlab chiqarilgan tikuv-trikotaj buyumlarining sifat ko‘rsatkichi yuqori bo‘ladi, boisi sun‘iy toladan aralash to‘qilgan matoning shakl saqlovchanligi yuqori bo‘ladi, ranglar mustahkam bo‘lib, yuvganda o‘chib ketmaydi. Shuningdek, matoning chidamliligi ham ortadi. Shu boisdan ham, sun‘iy tola aralashtirilgan trikotaj matolarini, tayyor tikuv-trikotaj buyumlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi (2-жадвал).

2-jadval

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi korxonalarida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi¹⁸

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birl.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1.	To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	mlrd. doll.	4,5	5,5	6,8	8,2	9,7
2.	Innovatsion mahsulotlar ulushi	%	6,0	8,2	11,5	13,5	14,5
3.	Innovatsiyalarga FDI	mln. doll.	190,6	398,5	600,0	785,9	996,5
4.	Ish o‘rinlari	ming ish o‘rni	9,8	14,5	19,7	24,6	37,5
5.	Asosiy innovatsiyalar	hajm / loyihalar	50 ming tonna organik paxta	80 ming tonna MMF loyihalari	Smart-matolar Chirchiq	Brendlar uchun 20 ta liniya; paxtada gen tahriri	1,07 mlrd. dollarli 80 ta loyiha; nano-tex Molcem Nano; brendlar bilan 66 ta korxonalar

¹⁸ TextileExpo. Textile Revolution in Uzbekistan: how the country becomes a new production center for world brands. 2025. URL: <https://textileexpo.uz/en/news/textile-revolution-in-uzbekistan-how-the-country-becomes-a-new-production-center-for-world-brands>.

Respublikamizda innovatsion to‘qimachilik mahsulotlari an’anaviy paxta, ipkalava va gazlama ishlab chiqarishidan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan organik paxta, qayta ishlangan eriqlar kabi barqaror matolar, datchiklar, o‘tkazuvchan iplar va termoregulyatsiya xususiyatli smart-tekstil, MMF, shu jumladan sun’iy va nano-eriqlar, shuningdek, dizayn, ekologiya va raqamlashtirishga e’tibor qaratilib, global brendlar uchun yuqori texnologik materiallarga o‘tishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida xalqaro sertifikatlarni joriy etish islohotlarning asosiy elementlaridan biri hisoblanib, raqobatbardoshlikni oshirish, barqarorlikni ta’minlash va global bozorlarga chiqishni kengaytirishga yo‘naltirilgan. 2020 yildan boshlab majburiy mehnatning bekor qilinishi va 2021 yil GSP+ ga qo‘shilish orqali fokus ESG standartlariga o‘tdi. 2024 yilda 200 tadan ortiq korxonalar ILO, Better Work, UNECE va GIZ bilan sheriklik orqali sertifikatlar oldi. Bu esa, tayyor mahsulotlar eksportini 70 %ga oshirdi.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida xalqaro sertifikatlarni joriy etish islohotlarning asosiy elementlaridan biri hisoblanib, raqobatbardoshlikni oshirish, barqarorlikni ta’minlash va global bozorlarga chiqishni kengaytirishga yo‘naltirilgan.

3-jadval


2020-2024 yillarda “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi korxonalariga joriy etilgan yangi xalqaro sertifikatlar¹⁹

Xalqaro sertifikat	Tavsifi
WRAP	Ijtimoiy mas’uliyat standarti: mehnat huquqlari, xavfsizlik, ekologiya
Better Work	Mehnat sharoitlarini yaxshilash dasturi
Better Cotton Initiative (BCI)	Barqaror ekologik paxta
UNECE Sustainability Pledge	Циркуляр иқтисодиёт, ESG; UNECE қўллаб-қувватлаши
ISO 9001:2015	Sifat boshqaruvi tizimi
Oeko-Tex/GOTS	Ziyonsiz materiallar; organik gazlama

Xalqaro bozorlarga chiqish, O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlari va brendlarini tanitirishda yurtimizda va xorijda o‘tkazilayotgan ko‘rgazmalarning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Jumladan, BAAning Dubay shahrida “EXPO DUBAI”, Polshaning Varshava shahrida “FAST TEXTILE WARSAW”, Fransiyaning Parij shahrida “TEXWORLD EVOLUTION”, Rossiyaning Moskva shahrida “INTERNATIONAL FASHION TRADE SHOW”, Turkiyaning Istanbul shahrida “EVTEKS”, AQShning Nyu-York shahrida “TEXWORLD APPAREL” ko‘rgazmalari milliy mahsulotlarimiz xalqaro bozorlarda o‘z o‘rnini topishida katta yordam bo‘ladi. Bu ko‘rgazmalar samarasi o‘laroq, xorijiy maslahatchilar bilan bir nechta kelishuvlar amalga oshirildi (6-rasm).

Aynan, shu kelishuvlarning natijasi o‘laroq mahalliy brendlarimiz o‘z nomlari bilan keng miqyosda xorij bozorlariga kirib boradi va “Made in Uzbekistan” yozuvi ostida mahsulotlarimiz xorij bozorlarini egallaydi.

¹⁹ O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



6-rasm. To‘qimachilik sanoatining xorijiy maslahatchilari bilan kelishuvlari²⁰

Dissertatsiya ishida SWOT-tahlili asosida to‘qimachilik korxonalarini faoliyati baholangan. SWOT-tahlilni amalga oshirish uchun to‘qimachilik korxonalarini faoliyatiga eng ko‘p ta‘sir ko‘rsatadigan turli omillarni to‘laroq hisobga olishga imkon beradigan qulay uslubdan foydalanildi.

Omillarning ahamiyatlik koeffitsienti biz tomonimizdan quyidagi formula orqali aniqlandi:

$$K_{ij} = \frac{\sum_{i=1}^n x_i}{\sum_{j=1}^n x_j}$$

Bu yerda:

K_{ij} – ahamiyatlik koeffitsienti;

x_i – ekspertlar tomonidan ko‘rsatilgan parametrlarni tavsiflovchi omillar soni;

x_j – parametrlarni tavsiflovchi omillarning umumiy soni.

Ahamiyatlik ko‘rsatkichi qanchalik yuqori bo‘lsa, mazkur parametr korxonaga uchun shunchalik ko‘proq ahamiyatga ega bo‘ladi.

So‘rovnoma natijalari bo‘yicha “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi tarkibidagi uchta to‘qimachilik korxonalarini, jumladan “Shayxantoxur Tekstil” MChJ QK, “Zeta Teks” MChJ QK va “Yevroteks Global” MChJ QK to‘qimachilik korxonalarining kuchli va zaif tomonlari baholandi.

To‘qimachilik korxonalarining innovatsion strategiyalari tahlil qilinib, tarmoq korxonalarini innovatsion rivojlantirishda importga bo‘lgan bog‘liqlikdagi qiyinchiliklar asoslandi.

Tadqiqot obyekti qilib qabul qilingan “Shayxantoxur Tekstil” MChJ QK, “Zeta Teks” MChJ QK va “Yevroteks Global” MChJ QK to‘qimachilik korxonalarida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar tahlil qilindi hamda innovatsiyalarni joriy etishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish innovatsion strategiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida innovatsion strategiyalarni amalga oshirishning xorij tajribasi o‘rganilgan. To‘qimachilik korxonalariga innovatsiyalarni joriy etish rejasini chiziqli dasturlash asosida optimallashtirilgan hamda O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarining innovatsion strategiyasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

²⁰ O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Dissertatsiya ishida innovatsion strategiyalarni amalga oshirishning xorij tajribasi tadqiq etilgan, xususan innovatsion sohani rivojlantirishda yetakchi davlatlar asoslanadigan meyorlar kompleksiga, ilmiy tadqiqotlarga asoslanish va ularni qo‘llab-quvvatlash; ilmiy-texnikaviy rivojlanish yo‘nalishlarini tartibga solish, boshqarish; mahalliy sanoatni himoya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish; fan-texnikani rivojlantirishni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish; axborot-kommunikatsiya jarayonlarini takomillashtirish; texnologiyalarni uzatishni tashkil etish tizimini takomillashtirish; litsenziya-patentga egalik huquqi; bilvosita tartibga solish; innovatsion faoliyat natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish va uni baholash; ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni boshqarish usullarini rivojlantirish; xalqaro mehnat taqsimoti va hamkorlik ko‘lamini kengaytirish; korxonalariga davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam ko‘rsatish; innovatsion jarayon qonuniyatlarini o‘rganish; yanada rivojlanish va jadallashtirish usullarini takomillashtirish kabi innovatsion faoliyatni tashkil etishning asosiy jihatlarini kiritishimiz mumkin.

To‘qimachilik korxonalarini innovatsion strategiyasini amalga oshirishda bir qator tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni amalga oshirish, korxonaning bo‘limlari va sexlari o‘rtasida moliyaviy, moddiy-texnikaviy resurslarni taqsimlash, shuningdek yangi texnologiyalarni joriy etish va mavjud dastgohlar va jihozlarni ta‘mirlash ishlarini oqilona tashkil etish talab etiladi.

Keng miqyosda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ishlarni amalga oshirish ma‘lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. An‘anaviy tahlil usullaridan foydalanish, mazkur holatda kutilgan samarani bermaydi. Shu boisdan ham, to‘qimachilik korxonasining innovatsion strategiyasini amalga oshirishda chiziqli dasturlash usullaridan foydalangan holda, korxonaga joriy etilishi rejalashtirilayotgan innovatsiyalarni tahlil qilish, korxonaning aktivlaridan samarali foydalanish, innovatsion xatarlar bilan kutilgan foyda o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash, innovatsion strategiyani amalga oshirish samaradorligini oshirish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

Tadqiqot obyekti qilib qabul qilingan “Yevroteks Global” MChj QK, “Shayxantoxur Tekstil” MChj QK, “Zeta Teks” MChj QK va to‘qimachilik korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish rejasini taklif etilayotgan mazkur usuldan foydalanib, optimallashtirildi.

“Yevroteks Global” MChj QKda amalga oshirilishi taklif etilayotgan tashkiliy-texnikaviy innovatsiyalarni tatbiq etish uchun talab etiladigan kapital qo‘yilmalarning hisoblangan oqlanish muddatiga hamda mavjud resurslardan maksimal foydalanishga asoslangan holda, iqtisodiy matematik model tuzildi (4-jadval):

$$L(x)=71,2X_1+285X_2+287,3X_3+2X_4+6,2X_5\rightarrow max$$

Bu yerda, bir qator shartli belgilar kiritdik:

X_1 – yangi mahsulotni o‘zlashtirish bo‘yicha innovatsion tadbirni tatbiq etish darajasi;

X_2 – yangi texnologiyani joriy etish bo‘yicha innovatsion tadbirni tatbiq etish darajasi;

X_3 – yangi turdagi xomashyo va materiallardan foydalanish bo‘yicha innovatsion tadbirni tatbiq etish darajasi;

X_4 – SAR tizimini joriy etish;

X_5 – bo‘yalgan trikotajni aniq o‘lchash bo‘yicha innovatsion tadbirni amalga oshirish.

Rejalashtirilgan davrda korxonadagi mavjud bo‘lgan resurslar miqdori bo‘yicha cheklovchi quyidagi shartlar bajarilganida:

4-jadval

“Yevroteks Global” MChJ QKda amalga oshirilishi taklif etilayotgan tashkiliy-texnikaviy innovatsiyalar²¹

T/r	Korxonada amalga oshirilishi taklif etilayotgan tashkiliy-texnikaviy innovatsiyalar	Kutilayotgan iqtisodiy samara, mlrd. so‘m, (F_i)	Sarflanadigan resurslar					Oqlanish muddati, yil, (a_{i6})
			Kapital xarajatlar, mlrd. so‘m, (a_{i1})	Qo‘shimcha o‘rnatilgan quvvat, kvtt., (a_{i2})	Qo‘shimcha mehnat sarfi, mlrd. so‘m, (a_{i3})	Qo‘shimcha rejalashtirilgan moddiy sarf-xarajatlar, mlrd. so‘m, (a_{i4})	Boshqa xarajatlar, mlrd. so‘m, (a_{i5})	
1.	Yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish (X_1)	71,6	61,2	4,5	28,9	38,2	46,7	2 yil
2.	Yangi texnologiyalarni joriy etish (X_2)	285,8	183,0	31,2	84,2	99,2	102,4	3 yil
3.	Yangi xom ashyo turlarini ishlab chiqarishda foydalanish (X_3)	287,3	144,3	12	81,2	86,7	121,4	2 yil
4.	SAR sistemasini joriy etish (X_4)	2,0	1,5	-	0,9	0,8	0,9	2 yil
5.	Bo‘yalgan trikotajni aniq o‘lchash (X_5)	6,2	1,8	-	1,9	2,1	2,2	1 yil
6.	Jami talab etiladigan resurslar	-	391,8	35,7	197,1	227	273,6	-
7.	Bir yilda korxonadagi mavjud bo‘lgan resurslar	-	298	28	153	177	206	-

1. Kapital xarajatlar bo‘yicha:

$$61,2X_1 + 285X_2 + 144X_3 + 1,5X_4 + 1,8X_5 \leq 298$$

2. Mavjud energoresurslar bo‘yicha:

$$4,5X_1 + 31,2X_2 \leq 28$$

3. Mehnat sarfi bo‘yicha:

$$28,9X_1 + 84,2X_2 + 81,2X_3 + 0,9X_4 + 1,9X_5 \leq 155$$

4. Qo‘shimcha rejalashtirilgan moddiy sarf-xarajatlar bo‘yicha:

²¹ “Yevroteks Global” MChJ QK ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

$$38,2X_1 + 99,2X_2 + 86,7X_3 + 0,8X_4 + 2,1X_5 \leq 177$$

5. Boshqa xarajatlar bo'yicha:

$$46,7X_1 + 102,4X_2 + 121,4X_3 + 0,9X_4 + 2,2X_5 \leq 206$$

Qo'shimcha cheklov shartlari:

$$\begin{array}{ccccc} X_1 \leq 1 & X_2 \leq 1 & X_3 \leq 1 & X_4 \leq 1 & X_5 \leq 1 \\ X_1 \geq 0 & X_2 \geq 0 & X_3 \geq 0 & X_4 \geq 0 & X_5 \geq 0 \end{array}$$

Innovatsiyalarni joriy etish rejasini optimallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan iqtisodiy-matematik model chiziqli dasturlash masalalaridan hisoblanib, maqsad funksiyasining maksimum qiymati innovatsiyalarni joriy etishdan kutilayotgan foydani ko'rsatadi.

$$X_1 = 0,9078 \quad X_2 = 0,3819 \quad X_3 = 1,0 \quad X_4 = 1,0 \quad X_5 = 1,0$$

bo'lganida $L=469,64$ milliard so'm samaraga erishiladi.

Mazkur usulga asoslangan holda, "Shayxantoxur Tekstil" QK va "Zeta teks" MChJ korxonalarini uchun ham joriy yilda innovatsiyalarni kiritishda kapital mablag'lardan foydalanish rejasini optimallashtirishning iqtisodiy-matematik modeli ishlab chiqilib, maqsad funksiyasining maksimum qiymati, innovatsiyalarni joriy etishdan erishiladigan maksimal foyda ko'rsatkichi aniqlandi.

"Shayxantoxur Tekstil" MChJ QKda:

$$X_3=1 \quad X_2=0,85 \quad X_5=1 \quad X_1=0 \quad X_4=0$$

bo'lganida $L=207,475$ mlrd. so'm maksimal foydaga erishiladi.

"Zeta teks" MChJ QKda:

$$X_3=1 \quad X_2=0,7923 \quad X_4=1 \quad X_5=1 \quad X_1=0$$

bo'lganida $L=285,31$ mlrd. so'm maksimal foydaga erishiladi.

Innovatsiyalarni joriy etish rejasini ishlab chiqishda chiziqli dasturlash usulini qo'llashning maqsadga muvofiqligi shundaki, mazkur usul korxonaning mavjud resurslaridan optimal foydalangan holda, samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotlar jarayonida to'qimachilik sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uslubiyotini takomillashtirish maqsadida bir qator gipotezalar shakllantirildi:

H1: Mahsulot realizatsiya hajmi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu gipoteza mahsulotning bozordagi sotilish hajmi oshgani sari korxonalarda ishlab chiqarish miqdori ham ortishini nazarda tutadi. Sababi, yuqori talab ishlab chiqaruvchilardan ko'proq mahsulot yetkazib berishni talab qiladi.

H2: Ishlab chiqarish vositalarining eskirishi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Ushbu gipotezaga ko'ra, texnologik jihatdan eskirgan uskuna va jihozlar mavjud bo'lsa, korxonalar ularni yangilash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Bu holat mahsulot hajmida ijobiy o'zgarishga olib kelishi mumkin deb taxmin qilyapmiz.

H3: Asosiy ishlab chiqarish fondlarining sig'imi mahsulot ishlab chiqarish hajmini belgilovchi muhim omildir. Bu gipoteza ishlab chiqarish quvvati yuqori bo'lgan korxonalar ko'proq mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega, degan farazga asoslanadi. Yirik sig'imdagi ishlab chiqarish liniyalari samaradorlikni oshiradi.

H4: Mehnat unumdorligi oshgani sari mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham ortadi. Ushbu gipoteza ishchilarning samarali mehnati natijasida ishlab chiqarish hajmi oshishini ko'zda tutadi. Yuqori unumdorlik kam resurs bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

H5: Fondlarning yangilanish darajasi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Dissertatsiya ishimizda O'zbekiston to'qimachilik sanoati asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining 2000-2024 – yillarda o'zgarishi ma'lumotlariga asoslanib, o'zgaruvchilarning normal taqsimotga moslik grafiklari hamda kvantillar bo'yicha qiymat chegaralari aniqlandi. Bartlett 95 % ishonch oralig'ida O'zbekiston to'qimachilik sanoati iqtisodiy ko'rsatkichlarining avtokorrelyatsiya funksiyasi (ACF) grafigi va “Mahsulot ishlab chiqarish hajmi” o'zgaruvchisi bo'yicha diagnostik grafiklar chizildi.

Pirson korrelyatsiya test natijalariga ko'ra, oddiy chiziqli regressiya modelining ARIMA turi tanlangan bo'lib, bu model vaqt qatorida trend mavjudligi sababli 1-darajali differensiallash orqali statsionarlikka erishilganini bildiradi. AR va MA komponentlari esa o'zgaruvchining avvalgi qiymatlari va xatoliklari bilan bog'liqligini hisobga olib, aniq prognoz natijalarini olish imkonini beradi. Modelning R-squared=0,939 bo'lishi prognoz modelining juda kuchli ishontirish qobiliyatiga ega ekanini, ya'ni ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlarning 93,9 % qismini model izohlab berishini ko'rsatadi (5-jadval).


5-jadval

Toqimachilik mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2026-2030 yillar oralig'idagi prognoz ko'rsatkichlari²²

Model		2026 y.	2027 y.	2028 y.	2029 y.	2030 y.
Toqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish - Model_1	Forecast	35912,93	36920,76	38684,78	39763,99	41463,37
	<i>UCL</i>	46016,78	49352,6	52972,35	55774,15	58960,49
	<i>LCL</i>	25809,09	24488,75	24397,22	23753,82	23966,26

5-jadvalda 2026-2030 yillar oralig'ida toqimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining ARIMA modeli asosida tuzilgan prognoz ko'rsatkichlari keltirilgan. Prognozga ko'ra, ishlab chiqarish hajmi 2026 yilda 35913 mlrd. so'mdan boshlab, 2030 yilga kelib 41463 mlrd. so'mga yetishi kutilmoqda, bu esa tarmoqning o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Har bir yil uchun UCL (Yuqori isonch darajasi Upper Confidence Limit) va LCL (Quyi ishonch darajasi Lower Confidence Limit) qiymatlari ham berilgan bo'lib, ular prognozning ishonchlilik intervalini bildiradi, xususan, 2026 yilda prognoz 35913 mlrd. so'm, ammo bu qiymat 25809-46016 oraliqda o'zgarishi mumkin. Bu esa modelda ma'lum darajada noaniqlik mavjudligini, ammo umuman olganda o'sish trendi saqlanib qolayotganini bildiradi.

²² O'zto'qimachilik sanoati uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



7-rasm. Toqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ARIMA modeli vositasida prognoz ko'rsatkichlari²³

7-rasmida to'qimachilik mahsulot ishlab chiqarish hajmining ARIMA modeli asosida prognoz ko'rsatkichlari grafikasi keltirilgan bo'lib, u 2000-2030 yillar oralig'ida ishlab chiqarishning dinamikasini aks ettiradi. Grafikda to'q qizil chiziq bilan real (Observed) qiymatlar, siyohrang chiziq bilan moslashtirilgan qiymatlar (Fit), apelsin rang bilan esa 2025 yildan keyingi prognoz qiymatlari (Forecast) ko'rsatilgan. Shuningdek, UCL (Upper Confidence Limit) va LCL (Lower Confidence Limit) chiziqlari prognoz ishonchli oraliqlarini bildiradi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2025 yildan boshlab prognoz qilingan ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sish trendini ko'rsatmoqda, bu esa sohaga yo'naltirilayotgan innovatsion yondashuvlar va investitsiyalarning ijobiy samarasini anglatadi.

Dissertatsiyada tarmoq korxonalarini innovatsion rivojlantirishning raqobat ustunliklariga mahsulot ishlab chiqarish uchun mahalliy xomashyo bilan ta'minlanganligimizni, intellektual salohiyat darajasini hamda MDH mamlakatlariga yaqin ekanligimizni kiritilib, yangi imkoniyatlarimizga yuqori iste'mol qiymatiga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, kiyim-kechak mahsulotlarining milliy brendini rivojlantirish zarurligi ko'rsatilgan.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari asoslangan (8-rasm):

- xomashyo resurslarini oqilona taqsimlash hamda yangi tashkil etilayotgan tarmoq korxonalarini logistika va muhandislik infratuzilmalari bilan uyg'un holda rivojlantirishni ta'minlash;

- paxta yetishtirishdan tortib, yakuniy tayyor to'qimachilik mahsulotini ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oluvchi integratsiyalashgan paxta-to'qimachilik klasteri modelini joriy etish va rivojlantirish;

- ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalar, nou-xau yechimlar, dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy etish va zamonaviy kompozit hamda funksional materiallar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

²³ O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



8-rasm. Tarmoqni innovatsion rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari²⁴


²⁴ O'zto'qimachilik sanoat' uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

- mahalliy mahsulotlarning brend imidjini mustahkamlash, dizayn va moda yo‘nalishlarini rivojlantirish;
- to‘qimachilik sohasida standartlashtirish va sertifikatlash tizimini xalqaro talablarga mos ravishda yanada takomillashtirish;
- kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini chuqur modernizatsiya qilish orqali sohada yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish;
- tarmoq korxonalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, samarali menejment tizimini joriy etish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish;
- ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- xalqaro standartlarga javob beradigan, tashqi bozorlarda raqobatbardosh, yuqori texnologik keng assortimentdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish.

Dissertatsiya ishida tarmoq korxonalarining 2006-2024 yillardagi asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga asoslanib, bashoratlashning maqsadga yo‘naltirilgan kompleks usulini qo‘llagan holda, tarmoqning 2030 yilgacha rivojlanish strategik ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi.

Tarmoq korxonalarini innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishdan asosiy maqsad to‘qimachilik korxonasining innovatsion faolligini oshirish hamda madaniylashgan iste‘mol tovarlari bozorini yaratishdir. Mazkur maqsadga erishishda, biz tarmoq korxonalarini qayta qurollantirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga asoslanamiz.


2018-2030 yillarda tayyor gazlama ishlab chiqarish hajmini 235,5 mln. kv.m.dan 2138,8 mln. kv.m.ga, ya‘ni 9 martaga oshirish strategik maqsad qilib qo‘yilgan (9-rasm).



9-rasm. 2030-yilgacha trikotaj matosi ishlab chiqarish prognoz ko‘rsatkichlari²⁵

²⁵ O‘zto‘qimachilik sanoat’ uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Bugungi kunda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini innovatsion strategiyasi jami ishlab chiqarish hamda eksporti hajmida yarim tayyor mahsulotlar salmog‘ini kamaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulotlar salmog‘ini oshirishga qaratilgan (10-rasm).



10-rasm. “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi korxonalarida 2030 yilgacha tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi prognozi²⁶

Tarmoqni innovatsion rivojlantirishda noto‘qima materiallarni ham ishlab chiqarishni ham yo‘lga qo‘yish, ishlab chiqarish hajmini oshirish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, aralash tolali, zamonaviy gazlamalarni ishlab chiqarish hajmini kengaytirish ham istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi.


Tarmoqni innovatsion rivojlantirish strategiyasida tayyor trikotaj matosi hamda tikuv-trikotaj buyumlari, paypoq mahsulotlarini jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish alohida o‘rin tutadi.

Bizga ma’lumki, ishlab chiqarish hajmini yuqori sur‘atlar bilan oshirish o‘z navbatida tarmoq korxonalarini zaruriy hajmdagi xomashyo va yarim fabrikatlar bilan ta’minlashni talab etadi. Shu boisdan ham, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish uchun xomashyo balansi va to‘qimachilik yarimfabrikatlari holatini baholashni joiz, deb bildik.

Respublikamiz to‘qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirish strategiyasida kimyoviy tola va iplar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, 2030 yilga kelib, ishlab chiqarish hajmini 552,3 ming tonnaga yetkazish, 2020 yilga nisbatan 5,3 marta oshirish ko‘zda tutilgan. Paxta tolasi, aralash tolalar ishlab chiqarishda ham jadal o‘shirish sur‘atlari kuzatiladi, xususan 2030 yili ishlab chiqarish hajmini 530 ming

²⁶ O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

tonnaga yetkazish, 2020 yilga nisbatan 4 marta ko‘proq tola ishlab chiqarish strategik maqsadi qo‘yilgan (11-rasm).



11-rasm. Xomashyo balansi va to‘qimachilik yarimfabrikatlarining 2030 yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari²⁷

Tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun albatta, tayyor gazlamalar, trikotaj matosini yetarli hajmda ishlab chiqarish talab qilinadi. Shundan kelib chiqqan holda, 2030 yilga kelib, 2020 yilga nisbatan tayyor gazlamalar ishlab chiqarish hajmini 17232,3 mln. kv.metrqa, trikotaj matosi ishlab chiqarishni 541,2 ming tonnaga yetkazish strategik maqsad qilib qo‘yilgan. Shuningdek, to‘qimachilik galantereyasi ishlab chiqarishni keskin oshirib, 4642,4 mln. donaga yetkazib, aksessuarlar importini cheklash strategik maqsad qo‘yilgan.

To‘qimachilik korxonalarining innovatsion strategiyasini ishlab chiqishda biz oldimizga qo‘yilgan asosiy maqsadni aniq maqsad va vazifalarga aylantirib olishimiz kerak. Fikrimizcha, innovatsion strategiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar amalga oshirilishi kerak:

- texnikaviy qayta qurollanish;
- ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini qo‘llab-quvvatlash;
- tarmoqqa innovatsion (NANO) loyihalarni joriy etish;
- to‘qimachilik sanoati mashinasozligini rivojlantirish;
- to‘qimachilik sanoati klasterlarini tashkil etish;
- mahalliy xomashyo bazasini rivojlantirish, xomashyo resurslari assortimentini kengaytirish;
- sifatni yaxshilash, sertifikatlash tizimini rivojlantirish;
- xomashyo resurslari eksport-import operatsiyalarini bojnoxa tariflari orqali tartibga solish;

²⁷ O‘zto‘qimachilik sanoat’ uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

- kadrlarni tayyorlash, jadal o‘qitish dasturlarini ishlab chiqish;
- to‘qimachilik tarmog‘ida kichik biznesni tashkil etish va rivojlantirishni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- ichki bozorni noqonuniy to‘qimachilik mahsulotlaridan himoya qilish;
- tayyor mahsulotlarga nisbatan bojxona tariflari orqali tartibga solish, texnikaviy tartibga solish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet ellik ishlab chiqaruvchilar tovarlarini kirib kelishi sababli yuzaga keladigan raqobatdan himoya qilish, noqonuniy ishlab chiqarish va importni cheklash, o‘z ishlab chiqarishini tashkil etishni va tugallangan mahsulot iste‘molini rag‘batlantirish kerak, deb hisoblaymiz.

Madaniylashgan iste‘mol tovarlari bozorini yaratish uchun esa, noqonuniy ishlab chiqarish va importni cheklash, shuningdek o‘z ishlab chiqarishini tashkil etishni va tugallangan mahsulot is‘temolini, yangi turdagi to‘qimachilik xomashyolarini ishlab chiqarish hajmini kengaytirishni hamda innovatsion faollikni rag‘batlantirish kerak.

XULOSA

Dissertatsiya ishini bajarish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bugungi kunda dunyo bozorida tabiiy tolalardan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston dunyo bozorida faqatgina paxta xomashyosi emas, balki tayyor to‘qimachilik sanoati mahsulotlari yetkazib beruvchi eksportyor sifatida tanilishi uchun ham keng imkoniyatlarimiz borligini ta’kidlashimiz zarur.

2. Innovatsion to‘qimachilik korxonalarini – o‘z resurslarini real ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalariga kiritish orqali ishlab chiqarish tizimining sifat jihatidan samaradorligini yoki mahsulot sifatini oshirishni ta’minlaydigan korxonalar hisoblanib, bunday korxonalarini tashkil etish bugungi kunda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishdagi muhim strategik yo‘nalishlardan hisoblanadi.

3. Tarmoq mahsulotlari ham materiallar sarfini, ham mehnat sarfini ko‘p talab etgani bois, mahsulotga yangi xossa va xususiyatlarni berish, yangi tur mahsulotlarini yaratganda, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish maqsadida yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini qidirish, xomashyo va materiallarni yetkazib berish shartlari bo‘yicha ustunlikka ega yangi hamkorlarni topishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

4. Korxonada innovatsion strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish samaradorligini baholashning mezon va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi asosiy unsurlardan samarali foydalanishni ta’minlash uchun, ko‘p omilli tahlil usulidan ham foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. To‘qimachilik sanoati korxonalarining o‘ziga xos tashkiliy xususiyatlaridan biri mehnat buyumlarini xomashyodan tayyor mahsulotga aylanishida, mo‘ljallangan

texnologik jarayon bo'yicha o'timlardagi mashinalarda qayta ishlanishi shart ekanligi, shu sababli korxonaning rivojlanishini ta'minlovchi innovatsion strategiyani tanlashda alohida joriy etilayotgan mashinani emas, balki butun texnologik jarayon samaradorligini aniqlashning taqozo etilishidir.

6. Bugungi kunda tarmoq korxonalari oldida to'qimachilik texnologik uskunalari ehtiyot qismlari ishlab chiqarishda ehtiyot qismlarni maxsus litsenziyaga egaligi, maxsus metal xomashyosining yo'qligi, ehtiyot qismlarning turlari bo'yicha talabning yuqoriligi (har bir ehtiyot qism uchun alohida qolip va texnologiya talab etiladi) kabi muammolar mavjud.

7. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari tahliliga ko'ra, "Shayxantoxur Tekstil" MChJ QK o'zining rivojlanishida yaxshi ishlab chiqarish bazasiga va ishonchli moliyaviy holatga asoslansa bo'ladi. "Zeta Teks" MChJ QK esa ishlab chiqarishni samarali tashkil etishga va zamonaviy ishlab chiqarishga asoslanishi lozim.

8. Xorij mamlakatlari bilan hamkorlikda texnologiyalarni ishlab chiqish, o'zlashtirish, sotish, shuningdek litsenziyalar olish, birgalikda ilmiy texnik konferensiyalar o'tkazish, ko'rgazmalar tashkil etish borasida hamkorlikni rivojlantirish hamda to'qimachilik sanoatining intellektual salohiyatini rivojlantirish bo'yicha tarkibiy-texnologik qayta qurish ishlarini amalga oshirish, to'qimachilik ilmiy-ishlab chiqarish markazlarini yaratish ham innovatsion strategiyaning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

9. Tikuv-trikotaj korxonalaridagi ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan innovatsion faoliyat yangi mahsulot assortimentlarini ishlab chiqarishga joriy etish, mavjud assortimentlarga o'zgartirishlar kiritish, takomillashtirib, yangi xossa va xususiyatlar berish, yangi texnologiyalarni, innovatsion investitsiyalarni joriy etish bilan tavsiflanadi.

10. Tikuv-trikotaj korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish tizimini takomillashtirishda mahsulot-innovatsiyalari salmog'ini kamaytirish hamda texnologik innovatsiyalar salmog'ini oshirish maqsadga muvofiq, chunki innovatsion-investitsiyalarni tarmoq korxonalariga jalb etish, tarmoqning investitsion jozibadorligini oshirish orqali biz korxonada takomillashgan, xomashyo sarfini qisqartirishga, mahsulot sifatini oshirishga imkon beradigan yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

11. Mutlaqo yangi texnologiyalar ulushining ortishi ularni yaratish va o'zlashtirish bilan bog'liq xarajatlarning ko'payishi bilan birga, modifikatsiyalangan texnika-texnologiyalar salmog'i pasayishiga olib keladi hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatning o'sishi natijasi hisoblanadi va o'sish tendensiyasi uzoq istiqbolda ham saqlanib qolsa, ijobiy natijalarga olib keladi.

12. To'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish innovatsion strategiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda, texnikaviy qayta qurollanish,

ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini qo'llab-quvvatlash, tarmoqqa innovatsion (NANO) loyihalarni joriy etish, to'qimachilik sanoati mashinasozligini rivojlantirish, to'qimachilik sanoati klasterlarini tashkil etish, mahalliy xomashyo bazasini rivojlantirish, xomashyo resurslari assortimentini kengaytirish, sifatni yaxshilash, sertifikatlash tizimini rivojlantirish, xomashyo resurslari eksport-import operatsiyalarini bojnoxa tariflari orqali tartibga solish, kadrlarni tayyorlash, jadal o'qitish dasturlarini ishlab chiqish kerak, deb hisoblaymiz.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.I.03.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЮСУПОВ САИДВАЛИ ШУКРУЛЛАЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ РАЗРАБОТКИ
ИННОВАЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ
ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

08.00.03 – Экономика промышленности

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)**

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.3.DSc/Iqt4901.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский – резюме) размещён на веб-сайте Научного совета (www.tdtu.uz) и в информационной сети «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный консультант:

Назарова Фатима Хакимовна,
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тилляходжаев Музаффарходжа Абдупаттахович
доктор экономических наук, доцент

Касимов Саидахрол Магруппович
доктор экономических наук, профессор

Салимов Бахтиёр Таджиевич
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/30.12.2019.I.03.05 при Ташкентском государственном техническом университете «__» _____ 2025 года в: часов (Адрес: 100095, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 207-07-32. e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (зарегистрирована под № _____). (Адрес: 100095, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 207-07-32. e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.

(Реестровое уведомление № _____ от «__» _____ 2025 года).

М.А. Икрамов

Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.э.н.,
профессор

О.И. Бегмуллаев

Учёный секретарь Научного совета, к.э.н.
(PhD), доцент

Г.Б. Юсупходжаева

Председатель научного семинара при
Научном совете, д.э.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

